

**QUR'ONI KARIM TAFSIRLARNING TURLARI VA
TAFSIR QILISH USLUBLARI**

Abdumalikova Muslima

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 771 39 82

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur'oni karimning tafsir qilinishi va uning uslublari to'g'risida gap boradi. Dastlabki davr tafsirlari va ularni turlari qanday bo'lganligi, shu bilan birgalikda, Qur'oni karimning turli sohalarda qilingan tafsirlari bilan batafsil tanishib chiqish mumkin.

Kalit so'z: Tafsir, ishoriy tafsirlar, aqliy tafsirlar, naqliy tafsirlar, nahviy tafsirlar, g'aribul Qur'on, fiqhiy tafsirlar, mufassir.

Asrlar davomida tafsir va Qur'on ilmlari rivojlanib borar ekan, kitoblar ta'lif etilar ekan, tabiiyki, tafsirning turlari ham ortib bordi. Ushbu ilm ham boshqa islom ilmlari kabi mukammallashib tarmoqlandi. Ular orasidagi farq va o'xlashliklar o'rganildi. Shundan kelib chiqib, tafsir dastlab uni tahsil qilishga ko'ra ikkiga bo'lindi: "At-tafsir bil ma'sur" – naql asosidagi tafsir va "At-tafsir bir ray" – aql va ijтиҳод asosidagi tafsir. Ammo, mavjud tafsir kitoblari tahlil qilinsa, ular yoki naql, ya'ni hadis, sahabalar rivoyatlari asosida yoki aqliy ilmlar asosida yozilgani ayon bo'ladi. Biroq naqliy tafsirlarda faqatgina naqliy ma'lumotlar, aqliylarida esa, faqatgina aqliy ma'lumotlar bo'ladi, degan qoida mavjud emas. Shu bois ikkalasi aralashgan kitoblarning topilishi tabiiy hol. Misol uchun, naqliy tafsirlardagi rivoyatlarning ayrimlarini afzalroq ekanini ajratish va tarjih qilishda aqliy ilmlarga tayanish holatlari kuzatiladi. Buning aksi, aqliy tafsirlarda naqliy rivoyatlar ham uchrab turadi. Biroq dalillarning aksariyat qismi aqliy bo'lgani sababli ular aqliy tafsirlar qatorida ko'rildi. Olimlar Qur'on oyatlarini qaysi jihatdan, qaysi e'tibordan sharhlashga kirishganliklariga qarab tafsirni ma'lum klassifikatsiyalarga bo'linganligini, tafsir qilishda turli uslublardan foydalaniilganini ko'rishimiz mumkin.

Tafsir ilmini olimlar uch qismga bo'lib o'rganganlar:

Birinchi qism, naqliy tafsir-biror oyatning ma'nosini Qur'onda va sunnatda kelgan yoki sahabalarning so'zlarida yoki tobeinlarning sahabalardan qilgan rivoyatlari asosida tafsir qilishdir. Ma'sur bilan tafsir qilish eng afzal va eng a'losi bo'lib, bunda mufassir Qur'oni Alloh taoloning kalomi bilan tafsir qiladi, chunki Alloh taolo O'zi kalomining ma'nolarini eng yaxshi biluvchi Zotdir yoki Qur'oni

Payg‘ambarimiz(s.a.v) kalomi bilan tafsir qiladi. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Alloh taoloning kalomini bayon qiluvchi zotdir. Yoki sahobalarning qavllari bilan tafsir qiladi, chunki ular nuzul vaqtiga shohiddirlar va o‘scha zamonda hozir bo‘lganlar, ular ahli lisondirlar. Nuzul paytida o‘zlari ko‘rgan hamda guvoh bo‘lgan holat va alomatlarni boshqalardan ko‘ra yaxshiroq biladilar. [1:269]

“At-tafsir bil ma’sur” uslubida yozilgan tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: imom Muhammad ibn Jarir Tobariyning «Jomi’ul bayon fiy tafsiril Qur’on», imom Abu Muhammad Husayn ibn Mas’ud ibn Muhammad Bag‘aviyning «Maolimut-tanzil», imom Imoduddin Ismoil ibn Kasirning «Tafsirul Qur’onul azim», imom Jaloliddin Suyutiyning «Ad-durul mansur fiy tafsir bil ma’sur» kitoblari.

Ikkinchi qism – «Attafsir bir-ray». Bu qismda mufassir o‘z fikri va ijtihodi ila tafsir qiladi va u ikkiga, joiz va g‘ayri joizga bo‘linadi. Joiz bo‘lgan ray bilan tafsir qilishda mufassir ishonchli masdarlargacha suyangan holda jaholat va zalolatdan uzoqda bo‘lib tafsir qiladi. Joiz bo‘lmagan qismda esa mufassir jaholat, bid’at va zalolat bilan tafsir qiladi, shuning uchun ham, barcha allomalar bu navdagagi tafsirni man qilganlar. Bu turdagi aqliy tafsirlar “Botiniy tafsirlar” ham deb nomlanadi.

Joiz bo‘lgan ray bilan qilingan tafsirlardan mashxurlarini eslab o‘taylik: imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxridin Roziyining «Mafotihul g‘ayb», imom Nasriddin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzaviyning «Anvarut-tanzil va asrorut-ta’viyl», imom Abul Barakot Abdulloh ibn Axmad ibn Mahmud Nasafiyining «Madorukut-tanzil va haqoiqu-ta’viyl» kitoblari. [2:57,58]

O‘z o‘rnida aqliy tafsirlarning ma’qul ko‘rilganni bir necha yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Lug‘aviy tafsirlar. Ularda nahv va balog‘at ilmlari, tarkib va uslublariga ko‘ra oyat ma’nolari keng yoritilgan bo‘ladi. Ba’zilar uni Qur’onda kelgan so‘zlarning arab tili nuqati nazaridan izohi, deb ham nomlaganlar.

Lug‘aviy tafsir ham o‘z navbatida g‘aribul Qur’on, nahv, balog‘at kabi turlarga bo‘linadi:

A) G‘aribul Qur’on. Ushbu atamani Qur’ondagi ayrim tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar deb izohlash mumkin. Chunki mazkur tafsir turida oyatlardagi ayrim so‘zlar birdan tushunilmaydi, balki chuqurroq tadqiq va tahlil qilinganidan so‘ng anglash mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazaridan g‘aribul Qur’onni ayrim olim insonlar tushunib, ayrimlari tushunmasliklari mumkin. Imom Suyuti yattadilar: «Sahobalar arab bo‘lib, arab tilining nozik qirralarini bilishlariga qaramay o‘zlari bilmagan so‘zlar borasida biror narsa deyishdan tiyilganlar».

B) Nahviy tafsirlar. Ba’zi olimlar nahv, ya’ni tilshunoslikning sintaksis qismi bilan bog‘liq qoidalarni tatbiq qilib, tafsir yozganlar. Unda Qur’on kalimalarini nahv matablariga monand tarzda sharhlaganlar va o‘zlari ishlataligani nahv qoidalariiga oyatlardan dalillar keltirganlar.

D) Balog‘at tafsirlari. Bu turdagи tafsirlarda oyatlarning balog‘ati, bayon va mo‘jizakorligi ochib berilgan bo‘ladi. Ma’lumki, Qur’oni karim yetuk arab tilida, so‘zlarining mo‘jizakorligi, jumlalarining maftunkorligi bilan alohida ajralib turadi.

1. Fiqhiy tafsirlar. Ma’lumki, fiqh ilmi shariatning amaliy masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda islom manbalarida kelgan hukmlar bayon qilingan bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, fiqhiy tafsirlarda ham fiqh hukmlari, ularning istinbot qilish yo‘llari keng yoritiladi va boshqa mazhablarga raddiyalar beriladi. Fiqhiy munozaralar tobeinlar davrida ham keng tarqalib, faqihlar orasida shu darajada kuchayib ketdiki, hijriy birinchi asr oxiri va ikkinchi asr boshlarida paydo bo‘lgan mazhablarning bahsmunozara markaziga aylandi. Har bir mazhab davomchilari qoidalardan kelib chiqib, o‘z qarashlarini isbotlashga kirishdilar. Shu tarzda fiqhiy mazhab qoidalariga binoan tafsirlar yozilishi boshlandi. Natijada tafsir bilan fiqh kitoblari o‘rtasida katta farq ham qolmadigan darajaga yetdi. Biroq bilish lozimki, ushbu mazhablarning aqidalari va istinbot qoidalari to‘g‘ri bo‘lgani to‘rtta hisoblanadi. Bular, hanafiyalar, molikiylar, shofiyalar va hanbaliylardir. Hanafiy mazhabidagi fiqhiy tafsir kitoblariga misol sifatida “Al-Jassos” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Bakr ar-Roziy (vaf.270 h.y.)ning “Tafsir ahkomul Qur’on” asarini olish mumkin.

2. Aqidaviy tafsirlar. Ularning xususiyati shundaki, aqidaviy oyatlar kengroq sharhlanadi, ayrim falsafiy yo‘nalish va oqimlarga raddiya beriladi. Shuningdek ularda tavhid, payg‘ambarlarning gunohdan ozodligi, ilohiy adolat, imomat, qayta tirilish, hidoyat va zalolat, ularning o‘rtalaridagi munosabatlarning inson ixtiyori va erkinligiga bog‘liqligi, Alloho moddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaslik, mutashobih oyatlar va shu singari boshqa masalalar keng yoritilgan bo‘ladi. Bularغا misol: Abu Mansur al-Moturidiyning “Ta’vilotil Qur’on”, al-Faxr ar-Roziyning “Mafotihul g‘ayb” asarlari.

3. Ijtimoiy tafsirlar. Bunday tafsir turlarida ijtimoiy masalalar (oila, iqtisod, siyosat va boshqalar) bilan bog‘liq oyatlarga ko‘proq e’tibor beriladi. Bunda Qur’on vositasida, ijtimoiy masalalarga oid oyatlarni sharhlash bilan, insonlarning aqidalari to‘g‘rilanishi, oilaviy va ijtimoiy holatlari yaxshilanishi maqsad qilib olinadi. Bu turga misol Ahmad Mustafo al-Marog‘iyning “Tafsirul Marog‘iy” asaridir.

4. Ilmiy tafsirlar. Bunday tafsir turlarida mufassir olim oyatlar bilan tajribaviy ilm o‘rtasidagi bog‘liqlikni Qur’onning mo‘jizakorligi assosida ochishga harakat qiladi va uni har bir zamon va makonga munosibligini yoritib beradi. Ba’zilar uni Rosululloh (s.a.v.) davrida tushunilish imkoniyati bo‘lmagan oyatlar ma’nolarini borliq (tabiiy) ilmlar yordamida ochib berish, deya ta’riflagan.

5. Ishoriy tafsirlar. Bunday tafsirlarda mufassir zohir bo‘lib turgan ma’no o‘rniga o‘ziga bilingan ishoriy, ya’ni hammaga ham ma’lum bo‘lavermaydigan hamda ishora qilingan ichki ma’no asosida oyatlarni sharhlaydi. Biroq bu kabi kitoblarda oyatlarning zohiriyl bilan ishoriy ma’nolari bir-biriga aslo zid bo‘lmaydi, ularni bog‘lash imkoniyati mavjud bo‘ladi, zohiriyl ma’nolar aslo inkor qilinmaydi.

Olimlar ishoriy tafsirlarning ruxsat etilishiga bir qancha shartlarni qo‘yanlar. Ulardan birinchisi, ishoriy tafsirlar aqlga ham shariatga ham qarshi bo‘lmasligi; ikkinchisi, ishoriy ma’nolar Qur’onning zohiriyligi matniga zid bo‘lmasligi; uchinchisi, oyatdan ko‘zlangan ma’no faqatgina botin (ichki)ning o‘zi, zohiri emas, deb bilmaligi; to‘rtinchisi, arab tili taqozo etayotgan ma’noga teskari bo‘lmaslik. Al-Olusiyning “Ruhul maoni”, An-Naysaburiyning “G‘aroibul Qur’on va rag‘oibul Furqon” asarlari ishoriy tafsir turiga kiradi.

Tafsir ilmida Qur’onni tahsil qilinishiga ko‘ra uchinchi qism-«Tafsiri ishoriy» hisoblanadi. Bu qismda mufassir oyatning zohiriyligi ma’nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarining uslubidir. Bu qismga doir tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: imom Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysaburiyning «G‘aroibul Qur’on va rag‘oibul Furqon», imom Sheraziyning «Aroisul bayon fi haqoiqu'l Qur’on» kitoblari. [2:57,58]

Qur’onni tafsir qilishda mufassirlar turli uslublardan foydalanishgan. Bular:

1. Tahliliy tafsir. Tahliliy tafsirda barcha sura va oyatlar sharhi Qur’on kitoblari tartibi bo‘yicha ketma-ketlikda beriladi. Doktor Zohir al-Almaiyl ham uni Qur’onda berilgan tartib bo‘yicha oyatlarni tafsir qilish deb izohlaydi. U tafsiliy tafsir deb ham nomlanadi.

2. Ijmoliy tafsirlar. Tafsirning ijmoliy uslubida oyatlar Qur’on kitoblari tartibida berilib, faqatgina ma’nolari umumiy tarzda, maqsadni izhor qilib, oyatlardagi so‘zlarni matn va tafsir bilan bog‘lab beradi. Ba’zilar uni “oyatlarni ixcham va umumiy tarzda sharhlash hamda bir yoki bir nechta oyatlar ma’nolarini batafsil sharhlamaslik”, deb aytadilar. Ushbu tafsirda oyatlar so‘zma-so‘z sharhlanmaydi, ba’zi o‘rinlarda nozil bo‘lish sabablari kabilar yoritiladi. Shu jihatdan ham ushbu tafsir ma’naviy tarjimaga o‘xshab ketadi.

3. Muqorin tafsirlar (bir-biriga yaqin va bir mavzu doirasidagi tafsirlar). Unda mufassir bir yoki bir nechta oyatni sharhlash asnosida mavzuga taalluqli bo‘lgan boshqa oyatlar, hadislар, sahoba, tobein yoki mufassirlar so‘zlari, boshqa samoviy kitoblardagi dalillarni keltiradi, ularni taqqoslab, afzalini noqisrog‘idan ajratib ko‘rsatib beradi. Uni ba’zi olimlar “bir oyat doirasidagi bir nechta dalillarni keltirish va ulardan yorqinrog‘ini ajratib olish” deb ham nomlashgan.

4. Mavzuiy tafsirlar. Mavzuiy tafsirlarda oyat sharhlari Qur’on kitobi tartibiga ko‘ra emas, balki biror bir aniq mavzu doirasida beriladi. Shu tarzda oyatlar jamlanib, sharhlanadi, hukm va ma’nolar keltiriladi hamda mavzu doirasidagi mazmun atroflicha yoritib beriladi.

Har bir asrda bir mavzu doirasida oyatlarni sharhlab, kitob yozgan olimlar bo‘lgan. XIV/XX asrda bu sohada ilmiy atamaologiya (mustalah) paydo bo‘ldi va buning asosi al-Azhar universitetida tashkil topdi. Biroq uning asoslari qadimdan

bo‘lgan va bu yo‘nalishda quyidagi tartibda o‘z faoliyatlarini amalga oshirganlar:

Birinchisi, Qur’onni Qur’on bilan sharhlash bo‘lib, unda bir mavzu doirasidagi oyatlar jamlanadi, bir oyat ma’nosini boshqa bir oyat yordamida ochib beriladi. Mavzuiy tafsirning ushbu turi eng maqbul uslublardan biri sanaladi. Bu uslubdan foydalanish eng maqbولي hisoblanib, undan bugungi kungacha foydalanib kelishadi.

Ikkinchisi ahkom oyatlari sharhlanadi. Bu ko‘rinishda bir guruh yetakchi mufassir olimlar Qur’ondagi faqatgina hukmiy, ya’ni fiqhiy oyatlarni sharhlashga kirishganlar. U ham mavzuiy uslub hisoblanadi.

Uchinchisi, ashboh va nazoir (o‘xhash va yaqin so‘zlar). Mavzuiy tafsirning ushbu turida Qur’onda kelgan bir so‘z olinib, uning turli joylarda kelgan ma’nolari ochib beriladi. So‘zlarning ma’nolari izohlanishi nuqtai nazaridan mazkur tafsir turi lug‘aviy tafsirlardan sanaladi. Biroq uslubiy jihatdan u mavzuiy tafsirdir.

To‘rtinchisi, tadqiqot tarzida yozilgan tafsirlar. Oldingi olimlar faqatgina so‘zlarning ma’nolarini izohlash bilan kifoyalanmay, balki nasx, qasam, mushkil, zarbul masal kabi bir mavzu yoki bir masalagagina taalluqli bo‘lgan tafsirlarni ham yozganlar. Abu Ubayla al-Qosim ibn Salomning “an-Nosix val mansux”, al-Movardiyning “Amsolul Qur’on”, Izz ibn Abdussalomning “Majozul Qur’on” kabi asarlari shular jumlasidan.[3:143]

Mavzuiy tafsirlar qadimdan olimlar tomonidan alohida o‘rganiladigan tafsir uslubi bo‘lgan. Hozirga kelib esa, bunday uslubdagi tafsirlar shu darajada ko‘payib ketdiki, u tadqiqotchilar uchun keng o‘rganiladigan alohida bir yo‘nalish sifatida shakllandi.

Bugungi kungacha 6000 dan ziyod tafsir kitoblari yozilgan bo‘lsa hamki, biror kimsa Qur’on oyatlarini tafsir qilish tugadi, Qur’on oyatlarining ma’nolari tamomila sharhlanib bo‘ldi, bundan keyin kim Qur’on oyatlariga tafsir yozsa uni qabul qilinmaydi, deb aytolmaydi. Uni o‘rganishlik davom etaveradi. Bu Qur’on eng buyuk mo‘jiza ekanligining alomatidir. Shu e’tibordan ba’zi ulamolar shunday degan ekanlar: “Qur’oni Karim oyatlarini zamonlar sharhlaydi”. Haqiqatda, mulohaza qilinsa, Qur’oni Karim oyatlarining ma’nolari har bir zamon va makonni qamrab oladi. Balog‘atning eng cho‘qqisida bitilgan Alloh taoloning bu kalomi o‘z davrida johiliyat mushriklarini ham aynan mana shu e’tibordan ojiz qoldirgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. M.M.Agzamova. Islomshunoslik. darslik / M.M.Agzamova Toshkent “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. 176 b.
2. Quron ilmlari (savol-javoblar): diniy-marifiy / Ahmadxon Rashidov, – Toshkent: “Book Media Shop” MCHJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, 2024. – 288 b.